

SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIM SOHASIGA TA'SIRI

Nzanova Rita Tuzelbaevna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iroq
Tumani Politexnikumi maxsus fan o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi rolini tushunishga yordam beradi va bu yo'nalishda olib borilishi kerak bo'lgan tadqiqotlarga yo'l ochadi. Sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi ta'siri, uning afzalliklari va muammolari haqida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, texnologiya, avtomatlashtirish, interaktiv darslik, xavfsizlik, maxfiylik

Annotation: This article will help us to understand the role of artificial intelligence in the field of education and leads to research that needs to be held in this direction. The impact of artificial intelligence in the field of education, the advantages and problems of its advantages are discussed

Key words: artificial intelligence, technology, automation, interactive textbook, security, privacy

Аннотация: Эта статья поможет нам понять роль искусственного интеллекта в области образования и приведет к исследованиям, которые необходимо провести в этом направлении. Влияние искусственного интеллекта в области образования, преимущества и проблемы его преимуществ обсуждаются

Ключевые слова: искусственный интеллект, технология, автоматизация, интерактивный учебник, безопасность, конфиденциальность

KIRISH

XXI asrda sun'iy intellekt (AI) ta'lim sohasida inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari nafaqat o'qitish va o'rganish jarayonlarini takomillashtirish, balki talaba va o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratishga ham yordam bermoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellektning ta'limdagi roli va ta'sirlari ko'rib chiqiladi. Sun'iy intellekt zamonaviy texnologiyalar orasida eng tez rivojlanayotgan sohalardan biridir. Ta'lim sohasida uning qo'llanilishi o'quv jarayonini yangilash, samaradorligini oshirish va individual yondashuvni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi kunda har bir mamlakatda mana shu zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellekt sohasini rivojlantirishga va aynan ushbu texnologiyalarni fan va ta'lim sohasiga joriy etilishiga katta ahamiyat qaratilmoqdadir. Bu sohalar rivojini

ta'minlovchi yo'nalish ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan joriy etilishi zamonaviy texnologiyalarning qo'llanish sohalarini kengaytiradi. Ayni paytda ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlanayotgan yo'nalishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Ushbu jarayonlar orqali biz samarali natija va yutuqlarni qo'lga kiritishimiz mumkindir. Bugungi kunda mamlakatimizning barcha sohalarida bo'lgani singari ta'lim tizimida ham o'ziga xos yangiliklar qaror topmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimini texnologlashtirish, ta'lim samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy hayotimizga kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonlariga qo'llash asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qolmoqda. Chunki yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni tezda qabul qilish, ularni tahlil etib, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosa chiqarish hamda talabalarga yetkazib berish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish istiqbollari uning nazariy asoslarini tanqidiy ravishda tahlil qilish, ta'lim jarayoniga nisbatan samarali yondashuvning qaror topishi hisobiga ta'minlanadi. Ya'ni ma'lum bir vaqt oralig'ida pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarini o'zgartirish bilan birga uning "muammo maydonini ham o'zgartirish mumkin bo'ladi. Ta'lim jarayonida texnologik yondashuv asosida tashkil etish bir qator didaktik vazifalarni ijobiy hal etishni taqozo qiladi. Aynan bu usul ta'lim tizimiga joriy qilish yaxshi natija berganini ham ko'rishimiz mumkin. Yangi innovatsiyalangan dasturda dars o'tish ham bugungi kunning asosiy strategiyalaridan biriga aylanmoqda desak hech ham xato bo'lmaydi.

1. O'quv maqsadlaridagi dasturiy vositalarning imkoniyatlarini o'qitish vositasi, o'rganish asosi va axborotlarni qayta ishlash vositasi sifatida joriy etish. O'quv-metodik majmualar yaratishda, o'quv-namoyish qurilmalari va kompyuter vositalari integratsiyasi

2. Bunday majmualardan foydalanish o'quvchiga o'rganilayotgan jarayon haqidagi axborotlarni jamlash, saqlash, jarayonlarning qonuniyatlarini va mohiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Bu esa, o'quvchida intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish va mustaqil bilim olish imkoniyatini yaratadi.

3. Multimedia tizimlarini yaratishda kompyuterlar va audio-video axborotlarni uzatish vositalari imkoniyatlarining integratsiyasiga erishish. Bunday tizimlar o'zida dasturiy-apparat vositalar va qurilmalar majmuasini mujassamlashtirib, axborotning turli (matn, grafika, ovoz, tasvir) ko'rinishlarini birlashtiradi va foydalanuvchi bilan interfaol muloqotni tashkil etadi. Albattaki, bunda natijalar ham ko'zga ko'rinadi. Ko'pchilik olimlar bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarni takomillashtirish orqali zamonaviylashuvning tarafdorlari bo'lib kelishmoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA

Sun'iy intellektning ta'limdagi roli va ta'siri quyidagilar orqali ifoda topadi:

1. Shaxsga yo'nalitirilgan ta'lim



Sun'iy intellekt yordamida talabalar uchun o'qitish tizimlari yaratilmoqda. Masalan, Adaptive Learning (moslashuvchan o'qitish) platformalari talabaning bilim darajasiga mos ravishda materiallarni taklif etadi. Bu esa har bir talabaga individual yondashishni ta'minlaydi.

2. O'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash

Sun'iy intellekt o'qituvchilarga darslarni tayyorlashda va boshqarishda yordam beradi. Sun'iy intellekt tizimlari ma'lumotlarni tahlil qilib, o'qituvchilarga qaysi mavzularni qanchalik muvaffaqiyatli o'rgatilayotgani haqida xulosa chiqarishga yordam beradi.

3. Ta'lim jarayonini avtomatlashtirish

Avtomatik baholash tizimlari orqali talabalar ishlarini tez va samarasiz baholash mumkin. Bu esa vaqtni tejaydi va o'qituvchi diqqatini muhim vazifalarga qaratishga yordam beradi.

4. Qulaylik va samaradorlik

O'qituvchilar uchun Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish darslarni yanada interaktiv tarzda olib borishga imkon yaratadi hamda talabalarning motivatsiyasini oshiradi. Sun'iy intellekt asosidagi platformalar o'qituvchilarga interaktiv va qiziqarli ta'lim tajribasini taqdim etadi. O'yinlar va simulyatsiyalar orqali o'rganish jarayoni yanada qiziqarli bo'ladi.

5. Resurslarga kirish

Sun'iy intellekt ta'lim resurslariga, masalan, onlayn kurslar, interaktiv darsliklar va boshqa materiallarga kirishni osonlashtiradi. Bu, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi o'qituvchilar uchun muhimdir.

Shu bilan birga, sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi ishlatilishi bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi: maxfiylik masalalari, texnologik muammolar va inson resurslariga bo'lgan ehtiyoj kattaligi kabi masalalar mavjuddir. Sun'iy intellekt ta'lim sohasida katta imkoniyatlarga ega bo'lib, u zamonaviy bilim olish jarayonini yangilashga xizmat qiladi. Biroq uning ishlatilishi bilan bog'liq muammolarni hal etish zarurdir. Ta'lim tizimini rivojlantirish uchun sun'iy intellektidan oqilona foydalanishni rag'batlantirish lozimdir.

Sun'iy intellektning ta'limdagi muammolari

1. Ma'lumotlarni himoya qilish: O'qituvchilar haqidagi ma'lumotlarning yig'ilishi va saqlanishi xavfsizlik va maxfiylik masalalarini keltirib chiqaradi. Sun'iy intellekt tizimlarining ma'lumotlarni qanday ishlashi va saqlashi haqida aniq qonunlar va qoidalar talab etiladi.
2. O'qituvchi rolining o'zgarishi: Sun'iy intellektning ta'limdagi roli ortib borishi bilan o'qituvchilarning roli ham o'zgarishi kerak. Ba'zi mutaxassislar buni salbiy hodisa sifatida ko'rishi mumkin.

3. Texnologik tengsizlik: Har bir o'quvchi sun'iy intellektga asoslangan ta'lim resurslariga teng kirish imkoniyatiga ega emas. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.

XULOSA

Sun'iy intellekt ta'lim sohasida inqilobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Uning afzalliklari va imkoniyatlari keng, ammo muammolar ham mavjud. Ta'lim tizimlari Sun'iy intellektdan samarali foydalanish uchun yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishlari zarur. Kelajakda sun'iy intellekt ta'lim jarayonini yanada samarali va individualizatsiya qilingan holda amalga oshirishga yordam beradi. Sun'iy intellekt orqali ta'lim sifatini oshirishga erishiladi; talabalarning individual ehtiyojlariga mos ravishda tayyorlangan dasturlar orqali ular yanada samarali bilim olishadi. Etik jihatdan, sun'iy intellekt tizimlarining qarorlari adolatli va xolis bo'lishi kerak, aks holda diskriminatsiya va nohaqlik yuzaga kelishi mumkin. Shaxsiy hayotga aralashuv va maxfiylik muammolari ham dolzarb masalalardir, chunki sun'iy intellekt ko'plab ma'lumotlarni yig'adi va tahlil qiladi. Ijtimoiy jihatdan, sun'iy intellekt ish joylarida avtomatlashtirishni kuchaytiradi, bu esa ishsizlik va iqtisodiy tengsizlikka olib kelishi mumkin. Biroq, yangi ish o'rinlari va kasblarni yaratish imkoniyatlari ham mavjud. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida sun'iy intellekt innovatsiyalarni taqdim etishi, xizmat sifatini oshirishi mumkin. Shunday qilib, sun'iy intellektning ijtimoiy va etik ta'sirlarini muvozanatlash, jamiyat sifatida bu texnologiyalardan foydalangan holda insoniyat manfaatlarini himoya qilish uchun zarurdir. Sun'iy intellekt rivojlanishi faqat insoniyat foydasi uchun xizmat qiladi, Ushbu tendensiya davom etar ekan fan va texnologiya rivojiga ta'sir etib inson borliqdagi yagona ongli mavjudot bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baker, R. S., Inventado, P. S. (2014). Educational data mining: A review of the state of the art. *Journal of Educational Data Mining*, 6(1), 1-34.
2. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Center for Curriculum Redesign.
3. Kukulska-Hulme, A. (2020). Mobile assisted language learning [MALL]: A new approach to language learning. *ReCALL*, 32(1), 1-4.
4. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., Forcier, L. B. (2016). *Intelligence unleashed: An argument for AI in education*. Pearson Education.
5. Seldon, A., Abidoye, R. (2018). *The Fourth Education Revolution: Will artificial intelligence liberate or infantilise humanity?* Civitas Books.
6. Warschauer, M., Matuchniak, T. (2010). New technology and digital worlds: An overview of the impact of technology on language learning and teaching. *Language Teaching*, 43(2), 1-17.